



Toshkent shahar tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yanvar–sentabr oylarida 17 198,3 mln. AQSH dollari, jumladan eksport 3 668,8 mln. AQSH dollari, import 13 529,8 mln. AQSH dollari tashkil etdi.


Tashqi savdo saldosı - 9 860,7 mln. AQSh dollari, shu jumladan MDH davlatlari bilan -3 047,2 mln. AQSH dollari va boshqa davlatlar bilan minus - 6 813,5 mln. AQSH dollari tashkil etdi.

### Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi (2023- yil yanvar–sentabr oylarida)

	mln. AQSh dollari	2022- yilning yanvar-sentabrga nisbatan, % hisobida	Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>17 198,3</b>	<b>121,3</b>	<b>100,0</b>
MDH davlatlari	6 330,0	108,9	36,8
boshqa davlatlar	10 868,3	130,0	63,2
<b>Eksport</b>	<b>3 668,8</b>	<b>109,7</b>	<b>21,3</b>
MDH davlatlari	1 641,4	107,5	44,7
boshqa davlatlar	2 027,4	111,6	55,3
<b>Import</b>	<b>13 529,5</b>	<b>124,9</b>	<b>78,7</b>
MDH davlatlari	4 688,6	109,4	34,7
boshqa davlatlar	8 840,9	135,1	65,3
<b>Saldo</b>	<b>-9 860,7</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
MDH davlatlari	-3 047,2	x	x
boshqa davlatlar	-6 813,5	x	x




## MDH va boshqa davlatlarning Toshkent shahar tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, foizda (2023- yil yanvar-sentabr)



Toshkent shahrining 2023-yil yanvar-sentabr holatiga tashqi savdo aylanmasidagi ulushining 36,8 % MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi, qolgan 63,2 % boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar 2022-yilda mos ravishda 41,0 % MDH davlatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan 59,0 % boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Toshkent shahrining MDH davlatlari bilan olib borilgan tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning yanvar-sentabr holatiga 6 330,0 mln. AQSh dollari tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,9 % o‘shish kuzatilgan. MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog‘iston, Turkmaniston, Belarus Respublikasi, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 35,4 %ni tashkil qiladi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Germaniya, BAA, Fransiya, Litva, Hindiston, Korea Respublikasi Afg‘oniston, va AQSH yetakchi hamkor davlatlar hisoblanadi.



### Toshkent shahar tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar, foizda (2023- yil yanvar–sentabr oylarida)



Toshkent shahrining 2023- yil yanvar-sentabr holatiga tashqi savdoda eng asosiy hamkor davlatlari Xitoy (24,6 %), Rossiya Federatsiyasi (20,6 %), Qozog'iston (7,1 %), Turkiya (6,2%) va Turkmaniston (4,0 %) hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 62,5 % ni tashkil qiladi.

Dunyodagi mamlakatlar orasida eksportda hamkor davlatlar Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Tojikiston, Birlashgan Arab Amirligi va Qirg'iziston hisoblanib, ularning jami eksportdagi ulushi 73,2 % ni tashkil qiladi, importda esa hamkor davlatlar Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Turkmaniston, Germaniya, Fransiya va Hindiston davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 71,9 % ni tashkil qiladi.



## Toshkent shahar tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar hajmi (2023- yil yanvar–sentabr oylarida)

(mln. AQSH dollari)

	Ekspart	Import	Tovar aylanmasidagi ulushi, % hisobida
Xitoy	577,9	3 656,1	24,6
Rossiya Federatsiyasi	766,8	2 774,1	20,6
Qozog'iston	307,9	920,5	7,1
Turkiya	298,0	773,5	6,2
Turkmaniston	85,4	602,7	4,0
Germaniya	25,9	412,7	2,6
Birlashgan Arab Amirligi	135,3	214,5	2,0
Fransiya	1,4	311,2	1,8
Litva Respublikasi	41,3	268,8	1,8
Hindiston	14,5	276,1	1,7
Koreya Respublikasi	15,1	272,9	1,7
Afg'oniston	272,8	2,6	1,6
AQSH	67,3	182,6	1,5

Toshkent shahrining eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlarini bo'yicha o'sishi kuzatilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 135,3 %, sanoat tovarlari 1,6 % ga pasaygan.

Import tarkibining umumiy hajmidan 29,6 % ni mashina va asbob-uskunalar hamda 17,3 % ni sanoat tovarlari tashkil qiladi.



## Eksport tarkibi

	Eksportning umumiy hajmidagi ulushi, foiz hisobida		2022 -yil yanvar-sentabrga nisbatan, foiz hisobida
	2022- yil yanvar - sentabr	2023- yil yanvar - sentabr	
Eksport tarkibi	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>109,7</b>
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,7	4,6	124,3
ichimliklar va tamaki	1,9	1,6	84,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,8	1,2	66,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,6	3,4	73,9
Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	9,7	8,5	87,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	19,6	17,6	89,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	6,4	10,0	156,3
Turli xil tayyor buyumlar	3,3	4,4	133,3
Xizmatlar	48,9	47,8	97,8
Boshqa tovarlar	0,0	0,9	-




## Import tarkibi


	Importning umumiy hajmidagi ulushi, foiz hisobida		2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan, foiz hisobida
	2022- yil yanvar - sentabr	2023- yil yanvar - sentabr	
Import tarkibi	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>124,9</b>
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik xayvonlar	10,3	9,1	88,3
ichimliklar va tamaki	0,9	1,0	111,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,0	1,5	75,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,2	8,5	137,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,2	1,2	100,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	18,0	15,0	83,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	20,1	17,3	86,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	29,1	29,6	101,7
Turli xil tayyor buyumlar	5,6	5,0	89,3
Xizmatlar	6,6	6,6	100,0
Boshqa tovarlar	0,0	5,2	-



## Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, jamiga nisbatan, foizda (2022 yil va 2023-yil yanvar-sentabr oylarida)



## Tovar va xizmatlarning import tarkibi, jamiga nisbatan, foizda (2022 yil va 2023-yil yanvar-sentabr oylarida)





## Hududlar kesimida tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, (ming. AQSh doll), 2023- yil yanvar-sentabr oylarida

	oziq-ovqat mahsulotlari va tirik xayvonlar	ichimliklar va tamaki	nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar
<b>Toshkent shahri</b>	<b>169 715,1</b>	<b>60 275,9</b>	<b>41 965,4</b>	<b>124 833,3</b>	<b>497,4</b>
Bektemir	3 466,3	1 145,0	4 641,8	0,0	18,0
Uchtepa	12 721,5	19,4	548,8	0,0	0,5
Yunusobod	34 737,6	29 469,0	1 554,1	49 862,2	0,0
Mirzo Ulug'bek	8 681,0	1 354,0	1 127,0	44,8	18,8
Mirobod	3 755,2	2 796,1	1 502,0	1 387,3	43,5
Shayxontohur	1 523,9	1 219,7	1 559,6	395,6	8,1
Olmazor	24 550,2	5 050,2	2 405,9	271,9	45,6
Sergeli	3 022,5	7,1	842,8	9 241,4	0,0
Yakkasaroy	8 708,2	6 464,9	577,9	1 672,7	0,0
Yashnobod	27 859,1	11 312,3	24 608,4	62,2	6,7
Yangihayot	5 918,2	87,6	859,3	493,2	0,0
Chilonzor	34 771,4	1 350,6	1 734,5	61 402,0	356,2
Tumandan tashqari	0,0	0,0	3,3	0,0	0,0





*davomi*

	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	Mashinalar va transport asbob-uskunalar	Turli xil tayyor buyumlar	Xizmatlar	Boshqa tovarlar
<b>Toshkent shahri</b>	<b>312 877,0</b>	<b>644 783,0</b>	<b>365 592,5</b>	<b>161 978,9</b>	<b>1 753 691,3</b>	<b>32 605,4</b>
Bektemir	6 498,9	14 188,2	22 300,7	8 365,8	275,8	403,7
Uchtepa	353,6	7 682,3	35 657,8	40 144,2	261,3	62,7
Yunusobod	4 770,0	18 069,9	19 890,8	9 163,1	178259,2	4299,0
Mirzo Ulug'bek	3 248,8	47 502,5	29 987,0	10 291,0	16324,7	4185,7
Mirobod	5 437,6	6 739,8	25 090,7	5 997,3	697107,6	2907,5
Shayxontohur	241 144,3	40 430,4	103 577,5	5 780,5	22881,8	816,4
Olmazor	4 610,2	114 327,2	3 398,6	14 034,3	11131,6	661,6
Sergeli	3 966,8	147 161,5	16 902,1	5 561,2	98884,6	6999,0
Yakkasaroy	10 044,6	7 511,8	38 016,3	36 726,2	478470,8	3669,9
Yashnobod	13 605,8	64 990,1	58 234,3	6 053,3	104821,6	7420,9
Yangihayot	4 220,0	84 928,2	2 468,8	8 670,5	0,0	168,1
Chilonzor	14 595,2	91 251,1	10 054,0	11 155,0	50484,2	1010,9
Tumandan tashqari	381,2	0,0	13,9	36,5	94788,1	0,0



## Hududlar kesimida tovar va xizmatlarning import tarkibi, (ming. AQSh doll) 2023- yil yanvar-sentabr oylarida

	oziq-ovqat mahsulotlari va tirik xayvonlar	ichimliklar va tamaki	nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar
<b>Toshkent shahri</b>	<b>1 232 109,6</b>	<b>134 360,4</b>	<b>199 047,8</b>	<b>1 145 808,2</b>	<b>169 803,5</b>
Bektemir	66 309,0	47,3	12 464,0	3 755,9	272,1
Uchtepa	49 950,9	1 158,0	12 717,8	6 591,6	4 659,5
Yunusobod	92 292,0	29 029,6	42 855,5	138 377,8	18 549,1
Mirzo Ulug'bek	82 481,5	40 698,5	9 665,3	496 768,1	4 794,5
Mirobod	105 081,4	22 662,7	8 495,9	40 334,2	49 435,1
Shayxontohur	58 304,1	380,8	34 107,2	19 882,7	8 157,1
Olmazor	149 023,5	1 222,3	21 647,0	18 095,6	18 636,7
Sergeli	82 219,0	5 284,0	12 192,2	13 348,1	4 738,6
Yakkasaroy	162 125,1	12 124,6	4 815,6	80 352,6	14 976,0
Yashnobod	144 849,2	6 751,4	12 531,4	19 850,3	8 341,0
Yangihayot	11 123,9	266,6	6 455,6	9 592,2	8 322,3
Chilonzor	228 348,4	14 734,6	21 097,5	298 859,1	28 921,5
Tumandan tashqari	1,6	0,0	2,8	0,0	0,0



*davomi...*

	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	Mashinalar va transport asbob-uskunalari	Turli xil tayyor buyumlar	Xizmatlar	Boshqa tovarlar
<b>Toshkent shahri</b>	<b>2 033 367,0</b>	<b>2 338 107,6</b>	<b>4 002 591,6</b>	<b>672 306,4</b>	<b>897 730,4</b>	<b>704 302,1</b>
Bektemir	152 185,5	53 095,2	148 953,5	11 945,5	74,9	9 570,3
Uchtepa	63 959,6	156 727,7	118 104,9	29 017,9	0,0	19 606,7
Yunusobod	156 242,4	172 090,0	613 663,1	96 457,7	172 468,7	64 684,8
Mirzo Ulug'bek	151 541,1	113 117,4	382 138,1	62 225,1	5 895,8	27 878,8
Mirobod	251 834,4	298 024,5	666 760,8	72 134,7	450 384,6	157 138,7
Shayxontohur	93 129,7	216 451,6	341 514,4	79 327,9	55 412,7	54 075,4
Olmazor	383 865,1	181 748,7	151 940,8	46 515,0	103 413,0	54 055,9
Sergeli	156 039,2	209 538,9	561 391,8	23 422,8	16 229,7	79 836,1
Yakkasaroy	200 800,2	178 963,8	338 163,8	75 226,0	10 571,1	53 718,7
Yashnobod	169 107,1	336 744,3	295 371,9	62 538,4	12 228,4	60 272,9
Yangiheyot	33 369,7	190 962,3	70 645,2	8 335,0	1 900,1	7 122,4
Chilonzor	221 216,3	230 473,1	313 180,2	103 746,8	37 648,5	116 339,7
Tumandan tashqari	76,7	170,1	763,1	1 413,6	31 502,9	1,7



O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi.


Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga import tovarlarning o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Toshkent shahrining 2023- yil yanvar-sentabr holatida tashqi savdo aylanmasi Respublikaning tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 38,4 % ni tashkil etadi.

Toshkent shahrining 2023- yil yanvar-sentabr holatida eksport hajmi Respublika eksport hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 20,7 % ni tashkil etadi.

Toshkent shahrining 2023- yil yanvar-sentabr holatida import hajmi Respublika import hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 50,1 % ni tashkil etadi.

## 2023 yil yanvar-sentabr





## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Tovar** – har qanday ko‘chma mulk, shu jumldan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo‘lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumldan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mulk obyektlari.

**Tovarlar eksporti** – agar qonunchilikda boshqa tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

**Tashqi savdo aylanmasi** – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

**Tovarlar kelib chiqqan mamlakat** – tovar to‘liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat “Bojxona tarifi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 26- moddasiga asosan aniqlanadi).

**Tovarlarning belgilangan manzili** – yuklab jo‘natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma‘lum bo‘lgan mamlakat.

**Tovarlarning statistik qiymati** – shartnoma valyutasidan qat‘i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo‘yicha tovarlar qiymati.

**Xizmatlar (ishlar) eksporti** — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat‘i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

**Xizmatlar (ishlar) importi** — norezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat‘i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).